



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarini O'zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralari
- 30 **JUMAG'ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O'G'LI**
Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektiligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektni joriy etishdagi normativ to'siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o'ri: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 161 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O'zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 04.02.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./HBZC7699

UDC: 349.6(045)(575.1)

ATROF-MUHITGA OID QARORLAR QABUL QILISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI: XALQARO STANDARTLAR VA XORIY TAJRIBASI

Turdiyev Bobir Sobirovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi katta prokurori

ORCID: 0009-0004-4253-2985

e-mail: bobir.turdiev.uz@gmail.com

Annotatsiya. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki – demokratik boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, jamoatchilik ishtiroki davlat va fuqarolar o'rtasida muhim ko'prik vazifasini bajaradi. Bu esa qabul qilinayotgan qarorlarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantirib, boshqaruv tizimining legitimligi, shaffofligi va samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy global muammolar, xususan, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishi sharoitida qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolar ishtirokining samaradorligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur maqolada atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokining roli o'rganilib, xalqaro standartlar, xorijiy mamlakatlar tajribasi, milliy qonunchilik va amaliyot tahlil qilingan. Atrof-muhitga oid qarorlar sifatini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda jamoatchilik ishtiroki muhim omil sifatida ta'kidlangan. O'tkazilgan tahlillar ekologik boshqaruv jarayonida jamoatchilik ishtirokining sustligi, shaffoflikning yetarli darajada emasligi va manfaatdor tomonlar ishtirokiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, maqolada fuqarolarning ekologik boshqaruvdagi samarali ishtirokini kengaytirish va ta'minlash uchun jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirish va raqamlashtirish, ekologik nazoratni amalga oshirishda fuqarolar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining salohiyati va rolini kuchaytirish, shuningdek, javobgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik ishtiroki, demokratik boshqaruv, inson huquqlari, qarorlar qabul qilish, atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB), jamoat nazorati, barqaror rivojlanish, shaffoflik, javobgarlik, O'zbekiston

УЧАСТИЕ ОБЩЕСТВЕННОСТИ В ПРИНЯТИИ РЕШЕНИЙ, КАСАЮЩИХСЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Турдиев Бобир Собирович,

старший прокурор Правоохранительной академии

Республики Узбекистан

Аннотация. Участие граждан в государственном управлении является одним из основных принципов демократического правления. Общественное участие выполняет функцию важного моста между государством и гражданами, способствуя формированию чувства

сопричастности к принимаемым решениям, а также укреплению легитимности, прозрачности и эффективности системы управления. В условиях современных глобальных вызовов, в частности загрязнения окружающей среды и изменения климата, обеспечение результативного участия граждан в процессе принятия решений приобретает особую актуальность. В настоящей статье рассматривается роль участия общественности в принятии решений, связанных с окружающей средой. Проведён анализ международных стандартов, зарубежного опыта, национального законодательства и правоприменительной практики. Подчёркивается, что участие общественности является важным фактором повышения качества экологически значимых решений и обеспечения устойчивого развития. Анализ показывает, что на практике наблюдается низкий уровень вовлечённости граждан в процессы экологического управления, недостаточная прозрачность и внимание к участию заинтересованных сторон. В связи с этим в статье предложены меры по коренному совершенствованию и цифровизации системы общественных слушаний, усилению потенциала и роли граждан и неправительственных некоммерческих организаций в осуществлении экологического контроля, а также совершенствованию системы ответственности.

Ключевые слова: участие общественности, демократическое управление, права человека, принятие решений, оценка воздействия на окружающую среду (ОВОС), общественный контроль, устойчивое развитие, прозрачность, ответственность, Узбекистан

PUBLIC PARTICIPATION IN ENVIRONMENTAL DECISION-MAKING: INTERNATIONAL STANDARDS AND FOREIGN EXPERIENCE

Turdiev Bobir Sobirovich,

Senior Prosecutor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. Citizen participation in public administration is one of the main principles of democratic governance, and public participation serves as an important bridge between the state and citizens. This contributes to the formation of a sense of involvement in the decisions being made, strengthening the legitimacy, transparency, and effectiveness of the management system. In the context of modern global problems, in particular environmental pollution and climate change, ensuring the effectiveness of citizen participation in decision-making processes is becoming a pressing issue. This article examines the role of public participation in environmental decision-making and analyzes international standards, the experience of foreign countries, national legislation, and practice. Public participation is emphasized as an important factor in improving the quality of environmental decisions and ensuring sustainable development. The conducted analyses show weak public participation in the environmental management process, insufficient transparency, and insufficient attention to the participation of stakeholders. Based on this, the article proposes measures aimed at radically improving and digitalizing the system of organizing public hearings to expand and ensure the effective participation of citizens in environmental management, strengthening the potential and role of citizens and non-governmental non-profit organizations in the implementation of environmental control, as well as improving the system of accountability.

Keywords: public participation, democratic governance, human rights, decision-making, environmental impact assessment (EIA), public oversight, sustainable development, transparency, accountability, Uzbekistan

Kirish

Davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokini ta'minlash demokratik boshqaruvning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. BMTning Fuqa-

roviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktining (1966-yil) 25-moddasida davlat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki fundamental inson huquqlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur ishtirok saylov va referendumlar, jamoatchilik nazorati, jamoat birlashmalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ishtirok shaklida amalga oshirilishi mumkin. Jamoatchilik ishtiroki davlat va fuqarolar o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarib, qabul qilinayotgan qarorlarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantiradi [1].

Boshqaruvda jamoatchilik ishtiroki va o'zaro muloqot qarorlar sifati, davlat boshqaruvi organlari mas'uliyati va hisobdorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash hamda o'zaro ishonch hamda legitimlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa turli aholi guruhlari o'rtasida umumiy maqsad sari samarali muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantiradi, mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni oldindan aniqlashga yordam beradi [2, 137-b.], natijada jamiyat jipslashuviga xizmat qiladi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo bo'ylab atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishiga doir ekologik nizolar, sudlashuvlar hamda ekologik harakatlarning ortib borishi – davlat va jamoatchilik o'rtasida muloqotning sustligi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayonida fuqarolar ishtiroki yetarli darajada ta'minlanmayotgani bilan bog'liqdir [2]. Bu esa boshqaruv siyosatini shakllantirish, amaliyotga joriy etish, tatbiq etish va uning ijrosini nazorat qilishda fuqarolar bilan samarali muloqot va maslahatlashuv tizimini yo'lga qo'yish zaruratini ko'rsatmoqda [2].

Jahon bankining Jahon boshqaruv indikatorlari mamlakatlardagi boshqaruv samaradorligini baholaydi. Mazkur ko'rsatkichlar oltita asosiy indikator – ovoz va hisobdorlik, barqarorlik, hukumat samaradorligi, qarorlar sifati, qonun ustuvorligi, korrupsiyani jilovlash asosida aniqlanadi. Tahlillarga ko'ra, ushbu indikatorlar orasida mamlakatimiz eng past natijani aynan ishtirok va hisobdorlik ko'rsatkichlari bo'yicha qayd etgan bo'lib, 100 ballik tizimida atigi 12,25 ballni tashkil etdi [3]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtiroki

yuqori bo'lgan mamlakatlarda hukumat samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va qonun ustuvorligi kabi boshqa indikatorlar ham yuqori bo'ladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki, ushbu masalaga oid xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek, O'zbekiston milliy qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqot davomida jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari va qarorlar qabul qilish jarayonidagi roli chuqur o'rganildi hamda atrof-muhitni boshqarishdagi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida baholandi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlili, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik boshqaruv va unga oid qarorlar samaradorligini oshirishda jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyatga ega [4]. Mazkur ishtirok jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Jamoatchilik ishtiroki qaror qabul qilish jarayoni shaffofligini oshirib, uning legitimligini ta'minlaydi, ehtimoliy nizolar va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarning oldini olish yoki ularni yumshatishga xizmat qiladi [5]. Shuningdek, bu holat loyihalarning amalga oshirishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va kechikishlarning oldini oladi [6]. Ayni paytda turlicha qarash va maqsadlarga ega guruhlar o'rtasida ijtimoiy muloqot o'rnatish, mahalliy axborot va bilimlar almashish orqali qarorlar sifati oshadi, fuqarolar da esa davlat boshqaruvida ishtirok etish ko'nikmalari rivojlanadi [4].

Adabiyotlarda jamoatchilik ishtirokining turli darajalari tasniflangan bo'lib, passiv ishtirok yoki shunchaki jamoatchilikka axborot berish, jamoatchilik eshituvi va muhokamasi shaklida maslahatlashuv, interaktiv (muzokara, mediatsiya) ishtirok [7] shular

jumlasidandir. Xususan, Arnshteyn “narvoni” jamoatchilik ishtiroki darajasiga qarab ishtirokni sakkiz toifaga ajratadi [8]. Bunda quyi bosqichlarda jamoatchilikni umuman jalb etmaslik nazarda tutilgan bo’lsa, narvonning tepasiga chiqqan sari yuqoriroq darajadagi ishtirok ko’zga tashlanadi. Jamoatchilik ishtiroki xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan esa jamoatchilik ishtirokining besh xil darajasi (axborot, maslahatlashuv, jalb etish, hamkorlik va vakolat berish) e’tirof etilgan [9].

Ayrim olimlar jamoatchilik ishtirokini formal va noformal turlarga ajratadi. Xususan, axborot berish orqali yuzaga keladigan passiv ishtirok boshqa formal va noformal ishtirok turlariga turtki berishi va jamoatchilikning qaror qabul qilishdagi ishtirokini ta’minlashi mumkin [4]. Tadqiqotlarda formal muhokamalar davomida bildirilgan takliflar inobatga olinmagan holatlar jamoatchilik maslahatlashuvlariga salbiy ta’sir ko’rsatgani, bu esa formal ishtirokdan tiyilish va norasmiy shakllarda faollik namoyon etilishiga sabab bo’lishi mumkinligi ta’kidlangan [4]. Shuningdek, atrof-muhitga ta’sirni baholash (AMTB) yoki ekologik ekspertiza jarayonida jamoatchilik ishtirokining faqat rasmiyatchilik darajasida tashkil etilishi va qaror qabul qilishning shaffof bo’lmasligi jamiyatda hukumat hamda loyiha tashabbuskorlariga nisbatan ishonchsizlikka olib keladi [10].

Agar jamoatchilik ishtiroki qaror qabul qilishga real ta’sir ko’rsata olmasa, u holda bu ishtirokning o’zi ham sekin-asta susayadi [11] va natijada noformal ishtirok shakllarining kuchayishiga turtki bo’ladi. Ayni vaqtda olib borilgan tadqiqotlar noformal ishtirokning qaror qabul qilishda sezilarli ta’sirga ega ekanligini ko’rsatmoqda. Bu esa mavjud formal mexanizmlarning yetarli darajada samarali emasligini anglatadi [4].

Ayni paytda axborot texnologiyalari rivojlanishi va raqamlashtirishning kengayishi demokratik jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini sezilarli darajada oshirish imkonini berib, bu kibermakonda raqamli ishtirok tobora

muhim va keng ta’sirga ega bo’lib borayotganligini ko’rsatmoqda [12].

Ilmiy adabiyotlar tahlili jamoatchilik ishtirokining ekologik boshqaruvda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Ushbu imkoniyatdan samarali foydalangan holda, fuqarolarni demokratik jarayonlarga keng jalb etish orqali ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash mumkin.

Xalqaro standartlar. Ekologik boshqaruvga oid qaror qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlashish va ular ishtirokini ta’minlash bir qator xalqaro, mintaqaviy va institutsional standartlarda o’z ifodasini topgan. Xususan, Atrof-muhit va taraqqiyotga oid Rio deklaratsiyasida (1992-yil) insonning ekologik huquqlarini jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari orqali samarali ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur tamoyilga ko’ra, fuqarolarga atrof-muhit holati to’g’risida axborot olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, shuningdek, odil sudlov va ma’muriy vositalarga murojaat qilish imkoniyatini ta’minlash zarurligi belgilangan.

Keyinchalik mazkur tamoyillar atrof-muhit bilan bog’liq masalalarda axborotga ega bo’lish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va odil sudlovni ta’minlash to’g’risidagi Orxus konvensiyasida (1998-yil) majburiy tatbiq etilishi lozim bo’lgan mexanizmlar sifatida mustahkamlangan. Mazkur konvensiya ekologik demokratiyaning asosiy poydevori sifatida e’tirof etilgan bo’lib, u real amaliy mexanizmlar bilan ta’minlanganligiga ko’ra ahamiyatlidir [1]. Hozirga qadar konvensiya Yevropa va Markaziy Osiyoning 48 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan [13]. Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ichida O’zbekiston mazkur hujjatga oxirgi bo’lib, 2025-yilda qariyb 20 yillik intilishlardan so’ng qo’shilganligini e’tirof etish zarur.

Mazkur hujjat biron-bir ekologik masalani to’g’ridan to’g’ri tartibga solmasa-da, insonning ekologik huquqlarini protseduraviy huquqlar vositasida amalga oshirish orqali at-

rof-muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga qaratilgan [14]. Konvensiya shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun davlatlarga fuqarolarni atrof-muhitga oid axborot bilan ta'minlash, ekologik siyosat, dastur va qonun hujjatlarini ishlab chiqish va boshqaruvda fuqarolar bilan maslahatlashish, ular ishtirokini ta'minlash hamda odil sudlovni kafolatlash bo'yicha majburiyatlar yuklagan.

Konvensiya atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari (Konvensiyaning I ilovasida ko'rsatilgan), atrof-muhitga oid reja, siyosat yoki dasturlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida jamoatchilik ishtirokini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan Konvensiya jamoatchilikni ushbu jarayonlarga zarur tayyorgarlik ko'rgan holda va samarali tarzda jalb etish uchun ularni barvaqt hamda shaffof tarzda xabardor qilishni talab qiladi.

BMTning Atrof-muhitga transchegaraviy ta'sirni baholash to'g'risidagi konvensiyasi (Espo konvensiyasi) rejalashtirilayotgan xo'jalik faoliyatining transchegaraviy salbiy ta'sirini baholash maqsadida atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) tartib-taomillarini joriy etish hamda bu jarayonda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash tartibini belgilaydi. Ushbu hujjatda keltirilishicha, ehtimoliy sezilarli transchegaraviy salbiy ta'sirlar nafaqat loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatdagi manfaatdor tomonlar, balki ushbu loyiha ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa davlatlardagi manfaatdor tomonlar, jumladan, jamoatchilik vakillari bilan ham muhokama qilinishi lozim.

Konvensiya 1997-yil kuchga kirgan bo'lib, bugungi kunga qadar unga 45 ta davlat, jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, MDH va qo'shni davlatlardan Rossiya (1991), Moldova (1994), Armaniston (1997), Ozarbayjon (1999), Qozog'iston, Qirg'iziston (2001) va Belarus (2005) qo'shilgan [15].

Markaziy Osiyo davlatlarining geografik joylashuvi va chegaradosh hududlardagi aholi turar joylarining bir-biriga yaqinligi, suv va boshqa tabiiy resurslardan birgalikda foydalanish hamda atrof-muhit ifloslanishi va iqlim o'zgarishining davlatlar chegarasi bilan cheklanib qolmasligini inobatga olib, mintaqada rejalashtirilayotgan va amalga oshirilayotgan yirik loyihalarning transchegaraviy atrof-muhitga ta'sirini baholash zarurati mavjud. Shunga ko'ra, Markaziy Osiyoda barqaror atrof-muhitni ta'minlash va yirik loyihalarni kelishgan holda amalga oshirish uchun O'zbekiston, shuningdek, qo'shni Afg'oniston, Tojikiston va Turkmanistonning Espo konvensiyaga qo'shilishi juda muhim va zarur.

Global e'tirof etilgan va 198 ta davlat a'zo bo'lgan yana bir hujjat – BMTning Iqlim o'zgarishiga oid hadli konvensiyasida (1992-yil) iqlim o'zgarishini hisobga olib, loyihalar yoki chora-tadbirlarning iqtisodiyot, jamoat salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida ta'sirni baholash mexanizmlaridan foydalanish zarurligi qayd qilingan [16]. Shuningdek, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (2015) 16.7-maqsadida barcha darajadagi qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash [17] muhimligi alohida qayd etilgan.

Atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda ularning moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois global moliyaviy institutlar bunday loyihalarni moliyalashtirishdan oldin ularning AMTB va mazkur jarayonda manfaatdor shaxslar bilan muloqotga (maslahatlashuv) oid talablariga standartlar belgilagan. Xususan, yetakchi moliyaviy muassasalar va banklar tomonidan yirik loyihalarni moliyalashtirishda AMTB va jamoatchilik maslahatlashuvidan foydalanishga oid Ekvator prinsiplari [18] (2003-yildan buyon) qabul qilingan.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi [19] 10 ta ekologik va ijtimoiy standartni o'z ichiga oladi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan atrof-muhit va ijtimoiy barqarorlikka oid standartlar [20] hamda Osiyo taraqqiyot bankining Atrof-muhitga ta'sirni baholash qoidalari [21] ham ushbu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega hujjatlar sirasiga kiradi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro va institutsional standartlar qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini yo'lga qo'yish, ular bilan maslahatlashish orqali shaffoflikni ta'minlash, taraflarning mas'uliyat va hisobdorligi hamda qarorlar sifatini oshirish yakunda loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi. Fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash ekologik nazorat mexanizmlari, jumladan, atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) doirasida amalga oshiriladi. AMTB shaklidagi ekologik nazorat dastlab 1969-yilda AQShda qabul qilingan "Atrof-muhitga oid milliy siyosat to'g'risida"gi qonun (NEPA) orqali joriy etilgan. Bugungi kunda AMTB dunyo miqyosida eng keng qo'llanayotgan ekologik nazorat shakllaridan biri bo'lib, 190 dan ortiq davlatlarning milliy qonunchiligida yoki ular tomonidan imzolangan xalqaro huquqiy hujjatlarda [22] ko'zda tutilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarning kelib chiqishi ko'pincha atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) jarayonining yuzaki amalga oshirilishi bilan bog'liq [23]. Mazkur jarayonda jamoatchilik ishtiroki muhim tarkibiy zanjir hisoblanadi. Bu rejalashtirilayotgan loyiha bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida loyiha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslarning ishtirok etish huquqiga ega ekanligi tamoyiliga asoslanadi [24].

Tahlillar loyiha tashabbuskorlari salbiy ta'sirni kamaytirib ko'rsatish va loyiha afzal-

liklarini bo'rttirish orqali loyihani tasdiqlatib olishdan manfaatdorligini inobatga olib, AMTB jarayonida turli manbalardan xolis axborot olish, legitimlikni ta'minlash va loyiha-ning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishiga erishish, ehtimoliy nizolarni barvaqt aniqlash va qaror qabul qilingunga qadar hal etish loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshiradi [4]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda AMTB qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik ta'siri pastligi sababli uning samaradorligini ta'minlash uchun jamoatchilik ishtiroki majburiy mexanizm sifatida belgilanishi, AMTB jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq amalga oshirilishi va natijalari mustaqil ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilishi ta'kidlangan [25].

Yevropa Ittifoqi direktivasiga ko'ra, AMTB doirasida nafaqat ekologiya, balki aholi va inson salomatligi, bioxilma-xillik, loyihaning yer, tuproq, suv, havo, iqlim, moddiy mulk, madaniy meros va ularning o'zaro munosabatlariga bevosita va bilvosita ta'sirlar ham baholanadi [26]. Mazkur muhokamalarda ishtirok etish uchun jamoatchilik OAVda e'lon berish, e'lon varaqalari yopishtirish, elektron tarzda va xabarnomalar yuborish orqali xabardor qilinadi. Shuningdek, AMTBga oid axborotga portal orqali elektron kirish imkoniyati yaratiladi. Jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar kamida 30 kunni tashkil etishi belgilangan.

Direktiva qoidalarini buzganlik uchun samarali, mutanosib va bunday holatlar takrorlanishining oldini oluvchi javobgarlik choralarini belgilash a'zo davlatlar zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, AMTB doirasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi, jamoatchilik ishtirokiga oid harakat yoki harakatsizlikni sud yoki mustaqil (betaraf) organlar tomonidan ko'rib chiqish mexanizmlari nazarda tutilgan [26].

Ayrim davlatlarda (Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Qozog'iston) AMTBga oid muhokamalarda nafaqat jamoatchilik vakillari, balki mahalliy va mintaqaviy davlat boshqaruvi organlari

ham idoraviy manfaatlari nuqtayi nazaridan ishtirok etishi belgilangan.

Hindistonda atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) jarayonida jamoatchilik ishtiroki ikki asosiy yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchi yo'l – loyiha rejalashtirilayotgan joyda yoki unga yaqin hududda jamoatchilik eshituvi shaklida, ikkinchi yo'l esa – jamoatchilik muhokamasi doirasida manfaatdor tomonlar tarafidan taklif va e'tirozlarning taqdim etilishi. Shuningdek, loyihani amalga oshirishning keyingi bosqichlarida loyiha buyurtmachisi tomonidan har olti oyda (har yili 1-iyun va 1-dekabrda) jamoatchilikka ochiq komplyens yoki monitoring hisobotlar taqdim etish orqali AMTB shartlariga amal qilinishi nazorat qilinadi [27]. Xitoy, Keniya va boshqa bir qator davlatlarda esa loyiha auditini o'tkazish orqali AMTB bo'yicha berilgan xulosalarga rioya etilishini monitoring qilish imkoniyati ko'zda tutilgan.

Xitoyda buyurtmachi jamoatchilik fikrini yetarli o'rganmay ekologik ekspertizaga hujjat taqdim etgan taqdirda, mazkur hujjatlar jamoatchilik fikrini o'rganish uchun qaytariladi [28]. Shuningdek, davlat ekologik ekspertizaga hujjat taqdim etmay yoki uning xulosasiz qurilish loyihasini amalga oshirganlik uchun qurilishni to'xtatib qo'yib, jarima jazosi qo'llaydi hamda huquqbuzarga avvalgi holatni qayta tiklash yuklatilishi mumkin [28]. Mazkur choralarga qo'shimcha ravishda agar jinoyat alomatlari bo'lmasa va qurilish ishlari to'xtatilmasa, aybdorga ma'muriy qamoq chorasi qo'llanishi nazarda tutilgan [28]. Bundan tashqari, ekologik ekspertiza va monitoringga mas'ul tashkilotlar, agar ular ma'lumotlarni soxtalashtirgan yoki noto'g'ri taqdim etgan bo'lsa, boshqa taraflar bilan birga atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan [28]. Manfaatdor tomonlar ekologiyani ifloslantirgan yoki jamiyat manfaatlari zararlantirgan shaxslarga nisbatan jamoatchilik manfaatlari uchun da'vo kiritish huquqiga egaligi ham ko'rsatilgan.

Qozog'istonda atrof-muhit va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki ochiq yig'ilishlar va jamoatchilik muhokamasi shakllarida o'tkazilishi belgilangan [29]. Qozoq qonunchiligiga ko'ra, jamoatchilik eshituvi o'tkazilishi haqida oldindan xabar berish, loyiha haqida fuqarolarga taqdim etiladigan barcha ma'lumotlar ro'yxatiga oid qat'iy talablar mavjud. Fuqarolar mazkur muhokamalarda onlayn yoki shaxsan ishtirok etish huquqiga ega.

Ochiq yig'ilish shaklidagi jamoatchilik eshituvi nafaqat I va II toifaga mansub (atrof-muhitga yuqori va o'rtacha ta'sir ko'rsatadigan) obyektlarning ekologik ekspertizasi, balki davlat va hududlarni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid dasturlar, aholi punktlarining bosh rejalari me'yorlarini belgilashga oid loyihalar bo'yicha ham o'tkazilishi belgilangan. Mazkur yo'nalishda Qozog'istonda atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokiga oid yagona Axborot tizimi (<https://ecoportal.kz/>) tashkil etilgan bo'lib, unda jamoatchilik eshituvi va muhokamalariga oid barcha tizimlashtirilgan ma'lumotlar, shu jumladan, loyiha va uning notexnik tavsifi, eshituvga oid OAVda berilgan e'lon va e'lonlar taxtasiga joylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, eshituv joyi, eshituv bayonnomasi, video va audio yozuvi, manfaatdor tomonlar tarafidan berilgan savol, e'tiroz va takliflar hamda ularga buyurtmachining javobiga oid barcha ma'lumotlar joylashtiriladi.

Qozog'istonda jamoatchilik eshituvi rejalashtirilayotgan loyiha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har bir ma'muriy-hududiy birlikda (viloyat, tuman, shahar, qishloq) alohida-alohida o'tkazilishi belgilangan [29]. Eshituvga oid hujjat va ma'lumotlar tanishish uchun eshituvdan kamida 30 kun oldin Axborot tizimi, tegishli mahalliy va davlat boshqaruvi organlari internet sahifasiga joylashtiriladi. Eshituv bo'yicha manfaatdor jamoatchilik vakillari hamda davlat idoralari o'z-

larining e'tiroz va takliflarini yozma shaklda Axborot tizimiga kiritadi yoki bevosita eshituvning o'zida og'zaki bayon etadi. Yig'ilish video va audio yozuvlari jamoatchilik eshituvi bayonnomasiga ilova qilinib, bayonnoma uning ustidan sud yoki sudgacha tartibda shikoyat qilish tartibi to'g'risida ma'lumot kiritiladi. Shuningdek, imzolangan bayonnoma, yig'ilish video va audio yozuvlari barcha tanishishi uchun Axborot tizimi va davlat organlarining internet resurslariga joylashtiriladi.

Jamoatchilik eshituvida berilgan e'tiroz va takliflarga asoslantirilgan javoblar berilmagan bo'lsa, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshiruvchi organ hujjatlarni buyurtmachiga qayta jamoatchilik eshituvini o'tkazish uchun qaytaradi. Jamoatchilik eshituvida berilgan e'tiroz va takliflar inobatga olinmagan hamda loyiha buyurtmachisi ularga qo'shilmagan hollarda, mazkur masala bayonnoma kiritiladi va Ekspert komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi [30].

Qozog'istonda atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan (III toifa) obyektlar, fuqaroviy turar joylarni qurish va rekonstruksiya qilish, atrof-muhitga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha Axborot tizimi orqali jamoatchilik muhokamasi amalga oshirilishi belgilangan [29].

AMTB jarayoniga oid xorij tajribasida jarayonning raqamlashtirilganligi, jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari loyiha ta'sir darajasiga qarab eshituv yoki muhokama shaklida o'tkazilishi, loyiha amalga oshirish bosqichlarida ham jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari nazarda tutilganligi, muhokamalarda jamoatchilik tomonidan berilgan fikrlar AMTBga oid hisobotga kiritilishi va inobatga olinishi nazarda tutilganligini ko'rish mumkin. Bu atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki sezilarli ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi.

Milliy qonunchilik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning jamiyat va

davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishini kafolatlaydi (36-modda). Mazkur ishtirok davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) orqali jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini nazarda tutadi (36-, 49- va 72-moddalar).

Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda fuqarolar ishtiroki jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun qulay atrof-muhitni ta'minlash ekologik nazorat, shu jumladan, ekologik ekspertiza orqali ta'minlanadi. Agar Konstitutsiya va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunda jamoatchilik nazorati obyektlari doirasi davlat organlari va ular mansabdor shaxslari faoliyati bilan cheklanib qolgan bo'lsa, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunda ekologik nazorat obyektlari shaxslar doirasi bilan cheklanmagan bo'lib, atrof-muhit bilan bog'liq faoliyat, harakat yoki harakatsizlikni qamrab oladi. Biroq jamoatchilik ekologik nazorati shakllari nisbatan cheklangan bo'lib, bular ekologik nazoratni amalga oshirishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, axborot hamda hisobotlarni eshitish, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, jamoatchilik fikrini o'rganish vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik ekologik nazorati natijalari tegishli shaxs va idoralarni xabardor qilish hamda qonunchilik talablari buzilishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rish uchun takliflar kiritish bilan cheklangan bo'lib, sudlarga da'vo kiritish imkoniyati nazarda tutilmagan. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 61-moddasida notijorat tashkilotlar o'z a'zolarining ishlari bo'yicha yoki qonunda boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlar sudda vakillik qilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa ekolo-


giya sohasida faoliyat yuritayotgan NNTlar-ning sudda da'vo kiritish imkoniyatlarini kafolatlamaydi. Holbuki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasida yuridik va jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va odamlarning mol-mulkiga, xalq xo'jaligiga ziyon yetkazayotgan ekologiya jihatidan zararli faoliyatni to'xtatish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqli ekanligi belgilangan.

Xorijiy davlatlar tajribasi jamiyat manfaatlari uchun ekologiyani muhofaza qilish bo'yicha da'vo arizalari kiritishda NNTlar yetakchi ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, Xitoyda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha asosiy da'vo arizalari (98,6 %) prokuratura idoralari tomonidan kiritilishiga qaramay, NNTlar tomonidan kiritilgan da'vo arizalari ta'sirchanligi va samaradorligi yuqori ekanligi e'tirof etilgan [31].

Ekologiyaga oid qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki norma ijodkorligi va shaharsozlik sohasida jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur yo'nalishda qonunchilik hujjatlari loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazishda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portal (https://regulation.gov.uz/) ishga tushirilganligini e'tirof etish kerak. Dastlab portal faqat biznes muhitga oid qonunchilikni muhokama qilishni nazarda tutgan bo'lsa, 2018-yilda uning qamrovi kengaytirilib, barcha normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish majburiy qilib belgilandi. Keyinchalik mazkur qoida 2022-yilda qayta ko'rib chiqilib, qoida tariqasida muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hujjatlar jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi belgilandi.

Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portaliga 2020–2024-yillarga oid 28 178 ta hujjat joylashtirilgan bo'lib, ulardan 276 tasi (1 foiz atrofida) atrof-muhitga oid hujjatlar hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda 2022-yilgi o'zgarishlardan keyin hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga taqdim

etish hollari pasayganligi hamda ba'zi qonunchilik hujjatlari jamoatchilik muhokamasini chetlab o'tib qabul qilinishi [32] hollarini kuzatish mumkin.



1-rasm. Jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan atrof-muhitga oid normativ-huquqiy hujjat loyihalari soni (2020–2024-y.)

Jumladan, 2024-yilda tasdiqlangan Toshkent va Nukus shaharlarining bosh rejalari bo'yicha jamoatchilik muhokamasi o'tkazilganligiga oid ma'lumot aniqlanmadi. Holbuki, Konstitutsiyada shaharsozlik hujjatlarining loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi (49-modda), Shaharsozlik kodeksida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari aholi punktlarining bosh rejalari loyihalarining jamoatchilik muhokamasini ta'minlashi, bosh rejalarga jamoatchilik muhokamasi boshlanishidan 10 kun avval e'lon berilishi, muhokama davomiyligi kamida 15 kunni tashkil etishi, bosh reja muhokama natijalari hisobga olingan holda tasdiqlanishi, jamoatchilik muhokamasini o'tkazish tartibi buzilganda, takroriy muhokama o'tkazilishi ko'rsatilgan (21-, 38-, 39-moddalar).

Bu esa atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan barcha loyihalar bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish hamda jamoatchilik taklif va fikrlarini inobatga olish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Atrof-muhitga ta'sirni baholashda jamoatchilik ishtiroki. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ekologik ekspertiza rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligi, atrof tabiiy muhit holati va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'siri,

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asosligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Qonunda ekologik ekspertizada jamoatchilik muhokamasi yoki eshituvi o'tkazish nazarda tutilmagan bo'lib, jamoatchilik tashabbusi bilan jamoat ekologik ekspertizasi o'tkazilishi mumkinligi belgilangan. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan 2020-yil 1-dekabrdan boshlab atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yuqori va o'rtacha darajada xavfli (I va II toifa) mo'ljallanayotgan hamda rejalashtirilayotgan faoliyat turlari bo'yicha loyihalar jamoatchilik eshituvlarida qo'llab-quvvatlangan taqdirda, davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi tartibi joriy etilgan. Shuningdek, qaror bilan "Atrof-muhitga ta'sirni baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, jamoatchilik eshituvi fuqarolar, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish hisoblanadi (10-moddada). Biroq Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda jamoatchilik eshituviga nisbatan cheklangan doirada ta'rif berilgan. Unga ko'ra, jamoatchilik eshituvi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan mo'ljallanayotgan, rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyatining maqsadga muvofiqligi bo'yicha qaror qabul qilinishini muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar va xorij tajribasiga ko'ra, jamoatchilik maslahatlashuvi faqat loyihaning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishdan iborat bo'lmasdan, manfaaddor shaxslarning manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilishda ularning fikr va istaklarini inobatga olish, loyihaning salbiy ta'sirini kamay-

tirish va yumshatish, shuningdek, muqobil yechimlar ko'rib chiqish kabi boshqa muhim masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosalari ochiq reyestri (<https://eco-service.uz/>) tahliliga ko'ra, 2023-yilda I va II toifaga mansub jami 3171 ta xulosa berilgan bo'lib, bu jami xulosalarning 15,7 foizini tashkil etadi. Shundan 1056 tasi, ya'ni 5,2 foizi I toifaga mansub xulosalar hisoblanadi. Hududlar kesimida berilgan jami xulosalarga nisbatan I toifaga mansub xulosalar nisbati Buxoroda 15 %, Qashqadaryoda 8 %, Toshkent, Navoiy, Samarqand va Qoraqalpog'istonda 6-7 %ni tashkil etgan bo'lsa, Xorazm (1,3 %), Andijon (2,5 %), Namangan, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida I toifaga mansub xulosalar 3 % atrofida kuzatildi. Bu borada 2023-yilda respublika bo'yicha o'rtacha 51,7 % loyiha III toifaga mansub bo'lsa, mazkur ko'rsatkich Andijon viloyatida 69,2 %ni tashkil etib, aksincha, I toifaga mansub loyihalar ulushi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan ikki baravar past. Shu kabi, Sirdaryo viloyatida 6,6 % loyihalar I va II toifaga mansub bo'lsa, 93,4 % loyihalar III va IV toifaga mansubligi ko'rsatilgan. Xorazmda bu tegishli 10 % va 87,4 %ni tashkil etadi. Xorazm va Navoiy viloyatlarining har birida toifasi aniq keltirilmagan xulosalar ulushi 2,5 %ni tashkil etadi. Bu esa davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etilgan loyiha hujjatlarining, haqiqatan ham, tegishli toifaga mansubligini alohida tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil 2023-yilda I toifaga mansub berilgan xulosalar bo'yicha faqat 41,5 % holatda jamoatchilik eshituvlari o'tkazilganligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich, ayniqsa, Buxoro (8,8 %), Xorazm (16,7 %), Sirdaryo (21,7 %), Qoraqalpog'iston (25 %), Navoiy (26,6 %), Qashqadaryo (28,3 %) viloyatlarida sezilarli darajada past bo'lsa, Toshkent (72,6 %), Andijon (68,2 %), Samarqand (64 %), Farg'ona (62,1 %), Surxondaryo (54 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (60,3 %) nisbatan yuqori hisoblanadi.

Garchi amaldagi tartibotlarda jamoatchilik eshituvi o'tkazmaslik uchun istisno holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa-da, 58,5 % holatda jamoatchilik eshituvi o'tkazilmagan. Bunda 50,1 % holatda ekologiya idoralari ma'lumotnomalariga asosan, jamoatchilik eshituvi o'tkazishga zarurat yo'qligi ko'rsatilgan bo'lib, asos sifatida 0350-17-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha sanitariya normalari va qoidalari" (2017-yil) keltirilgan.

Qonunchilikka ko'ra, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlanishi, Adliya vazirligida majburiy tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi hamda hisobga qo'yilishi belgilangan bo'lib, hisobga olinishi lozim bo'lgan, biroq Adliya vazirligida hisobga olinmagan texnik hujjatlar kuchga kirmagan hujjat sifatida qo'llanmasligi belgilangan. Biroq yuqoridagi 0350-17-son SanQvaN belgilangan tartibda Adliya vazirligida hisobga qo'yilmagan, uning matni biror rasmiy manbada mavjud bo'lmasa-da, amalda AMTB jarayonida keng qo'llab kelinmoqda. Mazkur SanQvaN o'zidan yuqori kuchga ega Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilangan jamoatchilik eshituvi o'tkazish lozimligiga oid normani bekor qilmaydi yoki qo'llamaslik uchun asos hisoblanmaydi.

Shuningdek, yuqoridagi hujjatning 2.13-bandida sanoat yoki ishlab chiqarish obyekti chegarasidan tegishli hudud (turar joylar) chegarasigacha bo'lgan belgilangan sanitar muhofaza zonasi masofasi normatividan ikki marta va undan katta bo'lsa, aholi sog'lig'i xavfini baholash ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi belgilangan bo'lib, mazkur norma jamoatchilik eshituvi o'tkazmaslik uchun asos bo'lmaydi.

2023-yilga oid I toifaga mansub rejalashtirilayotgan loyihalar bilan aholi turar joylarigacha bo'lgan masofa o'rtacha 5,9 km.ni (*hududlar kesimida 0,24 km.dan 32,6 km.gacha*), jamoatchilik eshituvi o'tkazilgan loyihalar bo'yicha o'rtacha ma-

sofa 2 km.ni (*0,09–9 km*), jamoatchilik eshituvi o'tkazilmagan loyihalar bo'yicha o'rtacha masofa 6,9 km.ni (*0,26–34 km*) tashkil etgan. Bunda aholi turar joylarigacha o'rtacha masofa, ayniqsa, Toshkent shahri (*0,24 km*), Andijon (*0,35 km*), Toshkent (*0,53 km*), Namangan (*0,6 km*), Farg'ona (*0,85 km*) viloyatlarida qisqa bo'lsa, aksincha, aholi turar joylarigacha o'rtacha masofa Buxoro (*32,6 km*), Qoraqalpog'iston (*25,4 km*), Navoiy (*6,6 km*) va Qashqadaryo (*5 km*) viloyatlarida sezilarli katta.

Sog'liqni saqlash vazirligi [33], Norma axborot-qidiruv tizimi, shuningdek, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz/>) tahlili natijasida 400 dan ortiq sanitar norma, qoida va gigiyenik normativlar aniqlanib, mavjud ma'lumotlar asosida ularning 300 dan ortig'i amalda ekanligi hamda shulardan 200 ga yaqin sanitar norma, qoida va gigiyenik normativlar hisobga qo'yilmaganligi hamda rasmiy manbalarda matni va aktual holati keltirilmaganligi aniqlandi.

Bu esa barcha umummajburiy tusdagi sanitar norma va standartlarni xatlovdan o'tkazish, Adliya vazirligida hisobga qo'yilishini ta'minlash, hujjat matni va aktual holatiga oid ma'lumotlarni qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi hamda tegishli davlat idoralarining rasmiy internet sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda.

AMTBda jamoatchilik ishtirokiga oid tadqiqotlarda qayd etilgan eng katta muammolardan biri til bilan bog'liq. Asosiy hujjatlarning ko'pchilik aholi gaplashadigan tilda berilmasligi jamoatchilikni AMTB jarayoniga jalb etish va samarali muloqotni yo'lga qo'yishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Milliy qonunchilikda jamoatchilik eshituvi o'tkazilishiga oid e'lon davlat tilida yoki ko'pchilik aholi gaplashadigan boshqa tilda berilishi, jamoatchilik eshituviga mo'ljallanayotgan va rejalashtirilayotgan xo'jalik faoliyatining texnik xususiyati bo'lmagan rezyume va boshqa tegishli hujjatlar taqdim etilishi ko'rsatilgan.

Shunday bo'lsa-da, buyurtmachi tomonidan ekologik ekspertiza uchun taqdim etilgan atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallarining 96,5 % rus tilida ekanligi aniqlangan. Hududlar kesimida 6 ta hududda (Jizzax, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm va Toshkent shahri) birorta xulosa davlat tilida taqdim etilmagan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich yana 4 ta hududda (Buxoro, Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston va Toshkent viloyati) 1 % atrofida bo'lgan. Faqat Namangan va Farg'ona viloyatlarida mazkur ko'rsatkich tegishli 32 % va 28 %ni tashkil etgan. Hindistonda loyiha hujjatlarining mahalliy va ingliz, Qozog'istonda davlat va rus tillarida taqdim etilishi nazarda tutilgan. Bu esa loyiha hujjatlarini ko'pchilik aholi gaplashadigan tilda taqdim etishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan jamoatchilik eshituvlari bo'yicha 9 % holatda ekspertizaga 6 oy va undan avvalroq o'tkazilgan jamoatchilik eshituvlari yoki avvalgi loyihalar doirasida o'tkazilgan jamoatchilik eshituvlariga oid eski bayonnoma taqdim etilgan. Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida Qozog'istonda davlat ekologik ekspertizasi yoki ekologik ruxsatnoma olish uchun ariza jamoatchilik eshituvi bayonnomasi imzolanganidan keyin 6 oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi nazarda tutilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, jamoatchilik eshituvida manfaatdor tomonlarning kamida o'n nafar vakillari ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanishi ko'rsatilgan. Biroq ayrim jamoatchilik eshituvlarini tashkil etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar sababli ularda kvorum ta'minlanmagan holatlarni ham ko'rish mumkin. Jamoatchilik muhokamalarini samarali tashkil etish tizimi yo'lga qo'yilgan va jarayonga raqamli texnologiyalarni qo'llagan xorijiy mamlakatlar tajribasi kvorumga oid talablarni belgilashga zarurat yo'qligini ko'rsatadi. Xususan, Hindiston va Qozog'istonda AMTB doirasida jamoatchilik eshituvlarida kvorumga zarurat yo'qligi qayd etilgan. Bu esa jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish-

ning samarali tizimini yo'lga qo'yish va raqamlashtirish orqali kvorumga oid talablarni kelgusida maqbullashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Jamoatchilik eshituvlarida faollikni oshirish [10], jamiyat va fuqarolar manfaatini samarali ifoda etishda nodavlat notijorat tashkilotlar muhim o'rin tutib, muhokama natijalariga NNTlar ishtiroki ijobiy ta'sir ko'rsatadi [25]. Biroq AMTB doirasida o'tkazilayotgan jamoatchilik eshituvlari, asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtiroki bilan cheklanib qolayotgan bo'lib, ularda NNT va OAV vakillari ishtiroki yuqori emas.


Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish maqsadida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish huquqiga egaligi belgilangan (12-moddada). Orxus konvensiyasi ham davlatlardan atrof-muhitni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi NNTlarni tan olish va qo'llab-quvvatlashni talab qilib, ularning ro'yxatdan o'tgan joyi yoki faoliyat sohasiga asoslangan har qanday kamsitishni taqiqlaydi (3-moddada, 9-band). Shunga hamohang ravishda milliy qonunchilikda NNTlarning faoliyat ko'rsatish hududi bo'yicha cheklovlar Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrda 937-son qarori bilan maqbullashtirilganligini e'tirof etish lozim.

Shu bilan birga, ekologik muammolarning dolzarbligi ortib borayotganiga qaramay, mamlakatimizda ekologik NNTlar soni juda kam. Mamlakat bo'ylab umumiy NNTlar soni 11 000 dan ortiq bo'lsa-da, ularning atigi 0,64 %i atrof-muhit muammolariga yo'naltirilgan. Respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan taxminan 750 ta NNTning esa faqat 1,5 %i atrof-muhitni muhofaza qilish bilan shug'ullanadi [34]. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlari orasida ekologik harakatlarning

nisbatan kam ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, mamlakatning dolzarb ekologik muammolarini samarali hal etish uchun ekologiya yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan NNTlarni ko'proq qo'llab-quvvatlash va salohiyatni oshirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish talab etiladi.

Javobgarlik masalalari. Qonunchilikda davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lmay turib, loyihalarning bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilishi, shuningdek, ularning ro'yobga chiqarilishi taqiqlanishi belgilangan. Shuningdek, loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarish uchun ma'muriy hamda ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Davlat ekspertizasi xulosalari tahlili ayrim loyihalar bo'yicha xulosa olinmasdan loyihalar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, sudlar tomonidan 2020–2024-yillarda 700 dan ortiq loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarishga oid ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilgan [35].



2-rasm. Loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarishga oid ma'muriy huquqbuzarliklar soni (2020–2024-y.)

Ayni paytda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda davlat ekologik ekspertizasi xulosasini berish tartibini buzish, jamoat-

chilik eshituvini o'tkazmasdan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha ekologik ekspertiza xulosasi berish, AMTB jarayonida noto'g'ri ma'lumot berish, ekspertiza xulosasida berilgan talablarga rioya qilmaslik kabi holatlar uchun aybdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmagan. Bundan tashqari, loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin shaxs huquqbuzarlikni davom ettirsa, qat'iyroq jazo chorasi qo'llash belgilanmagan.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish og'ir oqibatlariga (inson o'limi, ommaviy ravishda kasallanishi va boshqalar) olib kelsa, jinoiy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan bo'lib, internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlariga ko'ra mazkur yo'nalishda jinoiy ishlar aniqlanmagan. Shunga ko'ra, Jinoyat kodeksining 193-moddasini qaytadan ko'rib chiqish, takroriy ma'muriy huquqbuzarliklar va AMTB doirasida boshqa jiddiy huquqbuzarliklar sodir etilganda, jinoiy javobgarlikka tortishni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish, uning ta'sirchanligini ta'minlash, davlat idoralari va yuridik shaxslarning mas'uliyatini oshirish, shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olishda ochiqlik va shaffoflik [36] muhim ahamiyatga ega. Tahlillar ekologik boshqaruvda jamoatchilik ishtiroki sustligi mazkur jarayonda shaffoflik yetishmasligi va manfaatdor tараflar ishtirokini ta'minlashga yetarli ahamiyat qaratilmaganligi bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Xususan, atrof-muhitni boshqarishga oid turlicha yondashuvlar 2024-yilgi Atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) natijalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur reytingda O'zbekiston 42,6 umumiy ball bilan 107-o'rinni egallagan bo'lsa, Qozog'iston

47,8 ball bilan 72-o‘rinda joylashib [37], havo sifati hamda ekologik salomatlik kabi muhim ko‘rsatkichlarda mintaqa davlatlari orasida ustunlik qilmoqda. Bu esa O‘zbekistonda atrof-muhitni boshqarish samaradorligini oshirishda oshkoralikni ta‘minlash, jamoatchilik ishtiroki darajasini oshirish va kengaytirish uchun samarali mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ekologik boshqaruv va qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida AMTB doirasida jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirish va ushbu jarayonni raqamlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ekologiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, dastur va rejalar, shuningdek, past darajada xavfli va mahalliy darajada ta‘sir ko‘rsatuvchi faoliyat turlari bo‘yicha jamoatchilik muhokamasi o‘tkazishni belgilash, atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan obyektlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirish va yanada takomillashtirish taklif qilinadi.

Shuningdek, ekologik nazoratni amalga oshirishda fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlar salohiyati hamda ularning rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, ekologiya sohasida faoliyat yuritadigan NNTlarga jamiyat manfaatlarini uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha sudda davlat bojisiz da‘vo arizasi kiritish imkoniyatini berish, ular faoliyatini moliyaviy, grant mablag‘lari orqali qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda AMTBga oid jamoatchilik eshituvlarida ularning ishtirokini ta‘minlash choralari ko‘rish taklif qilinadi.

AMTB tartibotlariga rioya qilinmaganligi uchun javobgarlikni takomillashtirish zarur.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 96-moddasida loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz yoki berilgan xulosada ko‘rsatilgan talablarga rioya qilmay loyihani amalga oshirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Biroq jamoatchilik muhokamasiga oid tartibotlarga rioya etmay yoki jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilmagan loyihalarga davlat ekologik ekspertisasi xulosasi berganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shunga ko‘ra, loyihalarni jamoatchilik muhokamasini o‘tkazmasdan yoki jamoatchilik eshituvining belgilangan tartibini buzgan holda o‘tkazilgan muhokamalar asosida davlat ekologik ekspertisasi xulosalarini berganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortishni joriy etish maqsadga muvofiq. Ayni paytda Xitoy tajribasidan kelib chiqib, loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro‘yobga chiqarganlik uchun ma‘muriy jazo qo‘llanganidan keyin shaxs huquqbuzarlikni davom ettirsa yoxud takroriy ma‘muriy huquqbuzarliklar sodir etilganda, qat‘iyroq jazo choralari qo‘llash zarur.

Bundan tashqari, amalda qo‘llab kelinayotgan barcha sanitar qoida va normalarning Adliya vazirligida hisobga qo‘yilishini ta‘minlash, AMTBga oid loyiha hujjatlari bilan jamoatchilikning barvaqt tanishishi choralari ko‘rish hamda ko‘pchilik aholi gaplashadigan tilda berilishiga ahamiyat qaratish lozim.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, davlat idoralari va korporativ sektorning mas‘uliyatini oshirish, qarorlar sifatini yaxshilash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

1. Duncan W. The Aarhus Convention and Process Cosmopolitanism. *International Environmental Agreements. Politics, Law and Economics*, 2018, vol. 18, no. 2, pp. 199–213. DOI: 10.1007/s10784-017-9369-6
2. Oliver C.R., Larissa J., Houston H. The Human Right to Public Participation in Environmental Decision-Making: Some Legal Reflections. *Environmental Policy and Law*, 2023, vol. 53, no. 2–3, pp. 125–38. DOI: 10.3233/EPL-239001
3. World Bank Group Worldwide Governance Indicators 2024. Available at: <https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators>
4. Glucker A.N. et al., Public Participation in Environmental Impact Assessment: Why, Who and How? *Environmental Impact Assessment Review*, 2013, vol. 43, pp. 11–104. DOI: 10.1016/j.eiar.2013.06.003
5. Guidance on Public Participation in Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context. UNECE, [E/]ECE/MP.EIA/7, 2006. Available at: <https://digitallibrary.un.org/record/575462?ln=en&v=pdf>
6. Department of Urban and Regional Planning, University of Nigeria, Enugu Campus, Nsukka Road, 410001, Nsukka, Nigeria et al., Public Participation in Environmental Impact Assessment (EIA): A Critical Analysis. *Architecture and Engineering*, 2018, vol. 3, iss. 1, pp. 7–11. DOI: 10.23968/2500-0055-2018-3-1-7-12
7. Involving International Handbook of Social Impact Assessment. R.H. Becker and F. Vanclay (eds) Cheltenham, Edward Elgar Publ., 2003, pp. 259–260.
8. Sherry R. Arnstein's A Ladder of Citizen Participation. *Journal of the American Planning Association*, 1969, vol. 35, no. 4, pp. 216–224.
9. International Association for Public Participation, IAP2 Spectrum of Public Participation, 2024. Available at: https://cdn.ymaws.com/www.iap2.org/resource/resmgr/pillars/iap2_spectrum_2024.pdf
10. Hasan A.Md., Nahiduzzaman Kh.Md., Aldosary A.S. Public Participation in EIA: A Comparative Study of the Projects Run by Government and Non-Governmental Organizations. *Environmental Impact Assessment Review*, 2018, vol. 72, pp. 12–24. DOI: 10.1016/j.eiar.2018.05.001
11. O'Faircheallaigh C. Public Participation and Environmental Impact Assessment: Purposes, Implications, and Lessons for Public Policy Making. *Environmental Impact Assessment Review*, 2010, vol. 30, no. 1, pp. 19–27. DOI: 10.1016/j.eiar.2009.05.001
12. Suherlan S. Digital Technology Transformation in Enhancing Public Participation in Democratic Processes. *Technology and Society Perspectives (TACIT)*, 2023, vol. 1, no. 1, pp. 10–17. DOI: 10.61100/tacit.v1i1.34.
13. United Nations. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters (Aarhus Convention). *United Nations Treaty Series*, 2022, vol. 2161, p. 447.
14. Tatiana R., Zaharchenko G., Gretta G. Accountability in Governance: The Challenge of Implementing the Aarhus Convention in Eastern Europe and Central Asia. *International Environmental Agreements*, 2024, vol. 4, no. 3, p. 232.
15. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context, Article 2, United Nations, Treaty Series, 1991, vol. 1989, p. 309. Available at: https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXVII-4&chapter=27&clang=_en
16. United Nations Framework Convention on Climate Change, New York, 1992, 9 May. United Nations, Treaty Series, article 4, vol. 1771, p. 107.
17. Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development. United Nations, 2015. Available at: <https://sdgs.un.org/2030agenda>
18. Equator Principles Limited, The Equator Principles, 2025. Available at: <https://equator-principles.com/about-the-equator-principles/>

19. World Bank Environmental and Social Framework. 2016. Available at: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/837721522762050108-0290022018/original/ESFFramework.pdf>
20. IFC's Performance Standards on Environmental and Social Sustainability. 2012. Available at: <https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doc/2010/2012-ifc-performance-standards-en.pdf>
21. ADB Environmental Assessment Guidelines. 2003. Available at: <https://www.adb.org/documents/adb-environmental-assessment-guidelines>
22. Richard K.M. Environmental Impact Assessment: The State of the Art. *Impact Assessment and Project Appraisal*, 2012, vol. 30, no. 1, pp. 5–14. DOI: 10.1080/14615517.2012.661557
23. Maisarah M., Hafez S., Nikmatul A.N. Ineffective Public Participation for EIA: The Cause of Environmental Issues in Malaysia? *Journal of Surveying, Construction and Property*, 2020, vol. 11, no. 1, pp. 83–96. DOI: 10.22452/jscp.vol11no1.8
24. International Association for Public Participation, IAP2 Core Values, 2024, Available at: <https://www.iap2.org/page/corevalues>
25. Obaidullah N., Thomas B.F. An Evaluation Framework for Effective Public Participation in EIA in Pakistan. *Environmental Impact Assessment Review*, 2011, January, vol. 31(1), pp. 36–47, DOI: 10.1016/j.eiar.2010.01.003.
26. Directive 2011/92/EU of the European Parliament and of the Council of 13 December 2011 on the assessment of the effects of certain public and private projects on the environment, Article 3.
27. Environmental Impact Assessment Notification. India, 2006.
28. Environmental Protection Law of the People's Republic of China 2014, Article 56.
29. Rules for holding public hearings, Registered with the Ministry of Justice of the Republic of Kazakhstan on 2021 August 6, no. 23901. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2100023901>
30. Environmental Code of the Republic of Kazakhstan. 2021, January 2, No. 400-VI ZRK, act. 73–74. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K2100000400#z579>
31. Yi M., Wen X. Enforcing Law Through Authoritarian Environmentalism? State and Non-State Actors in China's Environmental Public Interest Litigation. *Journal of Current Chinese Affairs*, 2023, vol. 52, no. 3, pp. 464–87.
32. Turdiev B. Policy Development Through Normative Legal Acts in Uzbekistan: Actors, Procedures, and Practice. *International Journal of Law And Criminology*, 2024, vol. 4, no. 11 p 32. DOI: 10.37547/ijlc/Volume04Issue11-04.
33. List of current sanitary rules, norms and hygienic standards of the Republic of Uzbekistan (San-PiN RUz). 2019. Available at: <https://gov.uz/ru/ssv/sections/view/6381>
34. Register of non-governmental non-profit organizations and their divisions. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. 2025. Available at: <https://e-ngo.uz/front/registry>
35. Court decisions on administrative offenses published on the Internet by criminal courts. 2025. Available at: <https://public.sud.uz/report/CONFLICT>.
36. Turdiev B. Enhancing Environmental Transparency in Uzbekistan: Legal Perspectives from the Aarhus Convention Framework. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2024, vol. 6(11), pp. 27–34. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume06Issue11-05.
37. Block S., Emerson J.W., Esty D.C., de Sherbinin A., Wendling Z.A., et al. 2024 Environmental Performance Index. New Haven, CT: Yale Center for Environmental Law and Policy, 2024. Available at: <https://epi.yale.edu/downloads/2024-epi-report-20250106.pdf>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.